

TURLI SHAKL YUZALARIGA NAQSH KOMPOZITSIYALARINI CHIZISH

Baymurzayeva Oyqaram Shodiyevna

*A.Qodiriy nomidagi JDPU, Texnologik ta’lim va tasviriy san’at fanlari kafedrası
katta o’qituvchi, Jizzax shahri, O’zbekiston
e-mail: baymurzayeva77@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada turli shakl ichida naqsh kompozitsiyasini chizishda qo’llaniladigan yordamchi chiziqlar va chiziladigan naqsh elementlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: Tanob, bofta, shkufta, simmetriya, assimetriya, islamiy, girih

Аннотация: В данной статье рассматриваются вспомогательные линии и элементы узора, используемые при построении узорных композиций в различных формах.

Ключевые слова: Вербка, плетение, моток, симметрия, асимметрия, исламик, гирих

Annotation: This article discusses the auxiliary lines and pattern elements used in drawing pattern compositions within various shapes.

Key words: Rope, weave, skein, symmetry, asymmetry, islamic, girih

O’zbek xalq amaliy bezak san’atida naqqoshlik san’ati qadimdan qo’llanilib kelingan. Buni biz qadimiy me’moriy obidalarimizdagi ajoyib, bejirim, jimjimador, go’zal islamiy, ramziy, handasiy naqshu-nigorlarimizda ko’rishimiz mumkin.

Har bir naqsh kompozitsiyasi o’ziga xos tuzilish va ko’rinishga ega bo’ladi.

Naqqoshlik kompozitsiyasi deyilganda chizilgan kompozitsiyadagi naqsh elementlarining o’zaro bog’lanishi, ularning asar go’yasiga mosligi, kompozitsion markazi, simmetrikligi yoki assimetrik tuzilishga ega ekanligi, ulardagi mutanosiblik, marom, harakat, turg’unlik, planlilik, parallellik hamda ranglar gammasining o’zaro mosligi, mazmundorligi bilan kuzatuvchiga yetib bora olishi kabilar nazarda tutiladi.

Naqsh kompozitsiyalarini shakllar ichida tuzishni o’rganishda albatta avvalo xalq ustalarining ijodiy ishlarini kuzatish, ulardan nusxalar ko’chish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, turli muzeylar, tarixiy obidalarining ichki

va tashqi tomonlarini bezashda qo’llanilgan naqshu-nigorlar va ularning turlarini bilish zarur.

Bundan tashqari, tabiat qo’yniga sayohatga chiqib, o’simliklar, gullarni stillashtirish usullarini o’rganib, naqsh elementlarining yangidan-yangi nushalarini mustaqil yaratish va shu elementlar asosida kompozitsiya eskizlarini chizishni o’rganish lozim.

Turmushimizda qo’llaniladigan buyumlarning har biri o’ziga xos geometrik shakllardan iborat, shunga ko’ra naqsh kompozitsiyalari ham ma’lum bir shakl ichida tuziladi. Masalan, bular yo’l ichida, kvadrat, uchburchak, doira, ko’pburchaklar, romb va boshqa shakllar ichida naqsh kompozitsiyalari bo’lishi mumkin. Naqshlar islimiy, girih, gulli girih, ramziy naqshlardan iborat.. Naqsh kompozitsiyalarini chizishda biz albatta yordamchi chiziqlardan foydalanamiz. Shuning uchun chizg’ich, pargor va boshqa jihozlarni o’z o’rnida ishlata olish malakasiga ega bo’lish lozim. Turli shakl yuzalariga naqsh kompozitsiyalari chizishda biz dastlab yo’l ichida naqsh kompozitsiyasini chizishni o’rganamiz. Yo’l ichidagi naqshlar odatda davom etuvchi hoshiya naqshi hisoblanadi. Bu naqshni chizishda dastlab chiziladigan yuzaga qarab tanlangan o’lchamdagi yo’l cizilib, so’ngra to’g’ri to’rtburchak chizib, taqsimlarga ajratilib naqsh chiziladi. To’g’ri to’rtburchak o’lcham asosida chizib olinadi va naqshni joylashishiga qarab bo’laklarga bo’linadi, to’g’ri to’rtburchak ichidagi naqshlar tugallangan bo’ladi, chunki naqsh ana shunday o’lchamdagi yuzalarga moslab eskiz qilinadi. Uchburchak ichidagi naqsh ham boshqa naqshlar kabi chiziladigan yuzaga moslab tuziladi, uchburchak ichidagi naqsh ko’pincha ikki taqsimdan iborat bo’lishi mumkin. Aylana ichidagi naqsh ko’p hollarda yuzalarning o’rtasiga moslab chiziladi. Aylana kerakli o’lchamdagi diametrda chizib olinadi va uning yuzasiga naqsh kompozitsiya qilish uchun yuqoridagi kabi taqsimlar bo’ylab naqsh chiziladi. Aylana ichidagi naqsh bir necha taqsimdan iborat, ya’ni ikki, to’rt, olti, sakkiz, o’n ikki va hakozo taqsimlardan iborat bo’lishi mumkin. Naqsh taqsimi qanchalik ko’p bo’lsa, naqsh shunchalik bejirim, jimjimador ko’rinishga ega bo’ladi. Qolgan barcha shakl ichidagi naqsh kompozitsiyalari ham yordamchi chiziqlar va o’z kompozitsion qonun-qoidalariga ega. Har bir shakl ichida tasvirlangan naqshlarning simmetrik yoki assimetrik holda qo’llanilishi, naqsh elementlarining shaklga mosligi, ularni bir maromda o’sib borishi, o’zaro bog’lanishini va boshqa jihatlarini hisobga olinishi muhimdir.

Naqshlar tanoblar, barglar, gullar, novdalar, bofta va shkuftalar, bog’lam va sirtmoqlar, gajak va jingalaklar va boshqa qo’shimcha elementlar ishtirokida shaklga mos holda tasvirlanadi.

Naqsh chizish so‘nggida kompozitsiyalarga rang gammalari tanlanib, kolorit asosida ranglanadi.

Naqshlarni ranglash va pardozlash bilan ularning go‘zalligini, jozibasini mazmun va ma’nolari ifodalanadi. Naqshlarni ranglash bosqichlarida zamin shakl, gul, novda, barg kabi elementlar asosan bitta rang koloritiga asoslangan holda tasvirlanadi. Naqslar ketma-ketlik asosida ranglanadi. Ularni ranglash bosqichlari quyidagichadir:

1. Naqshning eng katta yuzasi bo‘lgan zaminini ranglash.
2. Naqshlardagi shakl oralig‘ini ranglash.
3. Naqshlarning gullari, barglari va bandlarini ranglash.
4. Naqshning shkufta va bofta kabi elementlarini ranglash.
5. Naqshga siyoh qalam va targ‘il tortish.
6. Naqshning oq bandlari va obisini tortishdan iborat.

Naqsh namunalarini ranglashda asosan garmoniya, faktura va kontrastlikka e’tiborni qaratish lozim. Garmoniya – grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, munosiblik, bog‘liq degan ma’nolarni anglatadi. Faktura – lotincha so‘z bo‘lib, narsa yoki buyumning tuzilishi, ishlov berish demakdir. Kontrast – fransuzcha so‘z bo‘lib, keskin farq qiluvchi ma’nosiga ega. Naqshda ranglar kontrastini zamin va gul elementlarining tuslanishida kuzatish mumkin. Naqshni ranglashdan oldin tayyor bo‘yoq oq qog‘ozga surtib, sinab ko‘riladi. Tayyorlangan rang tusi talabga javob beradigan bo‘lsagina, u bilan kerakli joylar ranglab chiqiladi. Naqshlarni ranglashda kerakli yuzaga yetadigan miqdorda bo‘yoq tayyorlab olinadi. Agar bo‘yoq etmay qolsa, keyingi tayyorlangan bo‘yoq oldingisidan farqlanib qolishi mumkin. Natijada naqsh namunasining bir butun, yaxlit ko‘rinishiga putur etadi. Siyoh qalam – eng nozik mo‘yqalam bo‘lib, uning yordamida naqsh elementlarining atroflari bir xil qalinlikda ravon chizib chiqiladi. Siyoh so‘zi – qora rang degan tushunchani anglatib, eng to‘q ranglar yordamida naqsh elementlarining chetlarini qalamdek chizib chiqish lozimdir.

Targ‘il – gul, g‘uncha, barg elementlarining turli xarakterlarini taroq tishlarisimon ko‘rinishda tasvirlanib, naqsh chiroyini yanada yorqinlashtiradi.

Naqshlarga rang berishda qalamda chizilgan chiziqlarni berkitish, chala bo‘yamaslikka alohida e’tibor berish kerak. Naqsh ranglari bir-biri bilan tutashtirilgan holda bo‘yalmasa, siyoh qalamda berilgan pardoz ko‘ngildagidek chiqmaydi. Natijada naqshning go‘zalligi va chiroyiga putur etadi.

Shunday qilib naqshlarning oddiy shakldagi yuzasidan tortib, murakkab bo‘lgan keng yuzalardagi bezaklari ham kompozitsiya mazmuniga ega bo‘lishi shart. Chunki har bir naqsh kompozitsiyasi mukammal asar maqomiga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.S. Bulatov, P. P. Shabaratov, M.A. Rasulov “Naqqoshlik” O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2010 .
2. S.S.Bulatov, Dadashev L. Naqsh alifbosi. –T.: Cho‘lpon, 1999.
3. I.U. Izbasarov “Naqqoshlik”. O‘quv qo‘llanma. Samarqand-2021.
4. D.J.Xayitboyev Badiiy bezak san’ati asoslari (Metodik qo‘llanma). – Urganch. UrDU, 2005.